



# JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




## JIZZAX VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2021- YILNING  
YANVAR-DEKABR OYLARIDA

## Dastlabki ma'lumotlar

2021-yil yanvar-dekabr

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.





**Xizmatlar sohasi** bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **6 419,0** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 394,3** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **118,1 %** ni tashkil etdi.


### Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari





**Xizmatlar** iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiradigan, tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlarni almashtirishga yordamlashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasidir.

### Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmini taqqoslash, mlrd. so'm



2021- yilning yanvar oyiga nisbatan joriy yilning dekabr oyida (diskret oy) ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **136,0** mlrd. so'mga o'sdi va **577,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning mos davrida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **97,2** mlrd. so'mga o'sdi va **471,7** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2021- yilning noyabr oyiga nisbatan joriy yilning dekabr oyida (diskret oy) xizmatlar hajmi 3,5 mlrd. so'mga pasaygan.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning noyabr oyiga nisbatan 2020- yil dekabr oyida xizmatlar hajmi **10,0** mlrd. so'mga o'sgan.

## Dastlabki ma'lumotlar


2021- yil yanvar-dekabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2020- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>6 419,0</b>	<b>118,1</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	288,2	116,4
Moliyaviy xizmatlar	1 517,3	120,9
Transport xizmatlari	1 112,4	121,9
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 095,9	122,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	159,4	109,9
Savdo xizmatlari	2 010,7	113,2
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	136,2	111,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	301,8	121,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	115,2	136,7
Ijara xizmatlari	135,5	115,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	163,8	121,1
Shaxsiy xizmatlar	181,7	113,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	93,2	111,1
Boshqa xizmatlar	203,6	134,8

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari egallaydi. 2021- yil yanvar-dekabr oylarida bu xizmatlarning ulushi **31,3 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy (**23,6 %**), transport xizmatlar (**17,3%**), shuningdek, ta'lim sohasidagi xizmatlar (**4,7 %**) bo'yicha qayd etildi.

## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmida biroz o'sish qayd etilib, ularning ulushi **1,5 %** ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari umumiy hajmning **31,7 %** ini tashkil etgan. 2020- yilning shu davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning ulushi eng kichik ko'rsatgichga ega bo'lgan – **1,5 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi.

Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o'sishi va ilg'or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2021- yil yanvar-dekabr oylarida yuqori o'sish sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda (**36,7 %**), boshqa (**34,8 %**), transport xizmatlari (**21,9 %**), ta'lim xizmatlari (**21,9 %**), kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlar (**21,1 %**), moliya sohasidagi xizmatlarda (**20,9 %**) hamda aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**16,4 %**) qayd etildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining biroz o'sishi yashash va ovqatlanish xizmatlarda (**9,9 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **125,2** %. Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarida keskin pasayish kuzatilgan – **22,7** %.



## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr






Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri kelmoqda. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli yuqori talabga ega hisoblanadi.


### Tashish turlari bo'yicha avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi, % da

2020- y. yanvar-dekabr

2021- y. yanvar-dekabr



Yuk tashish



Yo'lovchi tashish


2021- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashish xizmatlarining ulushi **54,8 %** ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-dekabr oylarida yuk tashish xizmatlarining ulushi **54,9 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr


## Umumiy avtomobil transporti xizmatlari hajmida hududlarning ulushi, % da (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



- Jizzax sh.
- Arnasoy
- Baxmal
- G'allaorol
- Sharof Rashidov
- Do'stlik
- Zomin
- Zarbdor
- Zafarobod
- Mirzacho'l
- Paxtakor
- Forish
- Yangiobod

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 095,9** mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan ushbu xizmatlar hajmi **22,1** % ga oshdi.

## Avtomobil transporti xizmatlarining o'sish sur'ati, % da (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida avtotransport xizmatlarining yuqori o'sishiga Sharof Rashidov (**24,7 %**), Do'stlik (**24,0 %**), Paxtakor (**22,9 %**) va Zomin (**20,9 %**) tumanlarida, shuningdek, Jizzax shahrida (**28,2 %**) erishildi. Ushbu sohadagi xizmatlar hajmining pasaygi sur'ati Arnasoy tumanida (**22,5 %**).

Info

**Savdo** bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **31,3** % ni tashkil etib, bu **2 010,7** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning hajmi **1 591,7** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **31,7** % iga to'g'ri kelgan.


### Savdo xizmatlari



Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

## Hududlar kesimida savdo xizmatlarining hajmi, mlrd. so'mda (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)



2021- yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlarining eng katta hajmi Jizzax shahrida qayd etilgan – **466,5** mlrd. so'm.


Shu bilan birga, hududlar orasida G'allaorol (**274,7** mlrd. so'm), Zomin (**234,0** mlrd. so'm), Sharof Rashidov (**204,1** mlrd. so'm), Baxmal (**183,1** mlrd. so'm), Forish (**136,2** mlrd. so'm), Zarbdor (**102,9** mlrd. so'm) va Do'stlik (**98,0** mlrd. so'm) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

2021- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i, **79,7 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **13,5 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**6,8 %**) tashkil etdi.

### Savdo xizmatlarining tarkibi

(2021- yilning yanvar-dekabr oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-dekabr oylarida chakana savdo ulushi ham **79,7 %** ga yetdi.



**Moliyaviy xizmatlar hajmi** – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

### Moliyaviy xizmatlar (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

2021- yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 517,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-dekabr oylarida ularning hajmi **1 239,2** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2021- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **23,6** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar- dekabr oylarida ularning ulushi **24,7** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **278,1** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **20,9** % ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida ularning o'sish sur'ati **125,2** % ni tashkil etgan.

## Dastlabki ma'lumotlar

## 2021- yil yanvar-dekabr


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **94,5 %** ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **4,3 %** oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **1,2 %** ini tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar



Sug'urta bo'yicha xizmatlar

Yordamchi moliyaviy faoliyat

**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **95,0 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **4,2 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **0,8 %**.



Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2020- y. yanvar-dekabr

2021- y. yanvar-dekabr





2017-2021- yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

### Ta'lim sohasidagi xizmatlar

2021- y. yanvar-dekabr

121,9 %

2020- yilga nisbatan o'sish sur'atlari

301,8 mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi

4,7 %

Umumiy hajmdagi ulushi

104,9 %

2020- y. yanvar-dekabr

232,4 mlrd. so'm

4,6 %


2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **301,8** mlrd. so'mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,7 %** ini tashkil etdi. 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **121,9 %** ni tashkil etdi.

## Dastlabki ma'lumotlar

## 2021- yil yanvar-dekabr

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori hajmi Jizzax shahrida (**253 151,1** mln. so'm) shuningdek, Sharof Rashidov (**8 443,1** mln. so'm), Zomin (**7 059,8** mln. so'm), Do'stlik (**6 869,2** mln. so'm), G'allaorol (**5 514,5** mln. so'm), Zarbdor (**3 967,2** mln. so'm) va Baxmal (**3 826,8** mln. so'm) tumanlarida qayd etildi.

### Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi, mln. so'm (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida Jizzax shahri bo'yicha ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **253 151,1** mln. so'mga teng bo'lgan.


## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish Do'stlik (**93,3 %**), Yangiobod (**25,1 %**), Zafarobod (**22,5 %**), Zarbdor (**22,4 %**), Sharof Rashidov (**21,6 %**) tumanlarida, shuningdek, Jizzax sh. (**21,0 %**) kuzatildi.

Mazkur xizmat turidagi o'sish sur'atlarining biroz oshishi Arnasoy (**115,6 %**) tumanida qayd etildi.

### Hududlar kesimida ta'lim xizmatlarining o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da






**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi** bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

### Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2020- y.  
yanvar-dekabr

2021- y.  
yanvar-dekabr



Xizmatlar hajmi, mlrd. so'm

Xizmatlar jami hajmidagi ulushi, % da


O'sish sur'ati, % da

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'atlarini taqqoslash, % da

Jizzax viloyati



— 2020- y. yanvar-dekabr      — 2021- y. yanvar-dekabr

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida sog'liqni saqlash sohasida xizmatlarning yuqori o'sishi Zomin tumanida **88,7 %** ni tashkil etdi. Nisbatan pasaygan sur'ati Mirzacho'l tumanida – **38,1 %**.

Dastlabki ma'lumotlar


2021- yil yanvar-dekabr



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar** – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

**Yashash bo'yicha xizmatlar** hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **159,4** mlrd. so'mga ko'paydi.

### Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da

2020- y.  
yanvar-  
dekabr

Oziq-ovqat va ichimliklar  
bilan ta'minlash bo'yicha  
xizmatlar

2021- y.  
yanvar-  
dekabr



2021- yil yanvar-dekabr oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **90,5** % bilan ustunlik qildi.

**Taqqoslash uchun:** 2020- yil yanvar-dekabr oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **92,4** % ni tashkil etgan.



# Jizzax viloyati statistika boshqarmasi



## Dastlabki ma'lumotlar

2021-yil yanvar-dekabr

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2021-yil yanvar-dekabr oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2021-y.	2020-y.
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>6 419,0</b>	<b>118,1</b>	<b>105,9</b>
Jizzax shahar	2 567,6	118,9	104,8
<i>viloyatlar:</i>			
Arnasoy	149,9	111,2	109,9
Baxmal	410,5	121,7	99,6
G'allaorol	523,2	118,5	107,0
Sharof Rashidov	832,3	120,2	108,8
Do'stlik	234,1	117,0	102,1
Zomin	558,6	121,0	106,2
Zarbdor	253,9	114,0	111,8
Zafarobod	144,3	114,5	118,1
Mirzacho'l	176,6	109,2	108,3
Paxtakor	234,8	115,6	103,6
Forish	260,4	112,9	107,6
Yangiobod	72,8	114,8	94,1



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

### Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2021-yil yanvar-dekabr oylarida)



2021-yil yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Jizzax shahrida – **40,0 %** (2020-yilning yanvar-dekabr oylarida – **40,7 %**).

Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari Yangiobod tumanida – **1,1 %** (2020-yilning yanvar-dekabr oylarida – **0,9 %**) qayd etildi.



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

### Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning o'sishi

4 498,6  
ming so'm

900,0  
ming so'mga



115,6 %

O'sish sur'ati

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 498,6** ming so'mga yetdi.

2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **115,6 %** ni tashkil etdi.


**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **3 598,6** ming so'mni tashkil etgan.

2019- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **103,7 %** da qayd etilgan.

Aholi jon boshiga ko'rsatiladigan bozor xizmatlari hajmining o'sishi har oyda kuzatilmoqda. 2021- yilning yanvar-dekabr oylari uchun ushbu ko'rsatkich hududlar bo'yicha Jizzax shahrida **14 046,1** ming so'mdan Yangiobod tumanida **2 528,5** ming so'mgachani tashkil etdi.

Ushbu hududda jon boshiga to'g'ri keladigan ko'rsatkichning pastligi u yerdagi aholi sonining ko'pligi bilan bog'liq.

### Aholi jon boshiga xizmatlar ishlab chiqarishning asosiy ko'rsatkichlari





**Xizmatlar sohasi** xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

13 085 birlik



1 132 birlikka o'sgan

2020- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi

2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

109,5 %



57,6 %


Ularning umumiy sonidagi ulushi

## Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **57,6 %**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **17,3 %**, sanoat ulushi **16,1 %** ni tashkil etdi. Qurilish sohasining ulushi esa **9,0 %** ga to'g'ri keldi.

### 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



**Taqqoslash uchun:** 2020- yilning 1- dekabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **56,9 %** ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi **16,9 %** ni, sanoat **16,5 %** ni, qurilish **9,7%** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2021- yil yanvar-dekabr

## 2021- yilning 1- yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni egallaydi (**43,1** %).

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **10,7** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi **4,6** % ga yetdi.

Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi **2,5** % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi **2,0** % ga teng bo'ldi

Savdo – 43,1

Boshqa turdagi xizmatlar – 37,1

Yashash va ovqatlanish – 10,7

Tashish va saqlash – 4,6

Sog'liqni saqlash – 2,5

Axborot va aloqa – 2,0


Dastlabki ma'lumotlar

2021-yil yanvar-dekabr



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

## Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



62,5 %

2021-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi 62,5 % ni tashkil etdi.

## 2021-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2021-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissi 75,8 % ga to'g'ri keldi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bulimi  
Tel.: 72-221-51-27

